



## **XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2022 - yil 30 - aprel

VI-47-54-8-121-K/22

Termiz shahar hokimligi

**Termiz shahar adliya bo'limi boshlig'i A.Jabborovning shahar darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati bo'yicha 2022-yilning I choragi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axboroti to'g'risida**

2022-yilning I choragi davomida Adliya vazirligi orqali kelib tushgan 257 ta normativ-huquqiy hujjatlar, shundan 19 ta Qonun, 83 (18/65) ta Prezident Farmon va Qarorlari, 91 ta Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, 61 ta vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining idoraviy-me'yoriy hujjatlari matni, davlat organlarining shahar tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, advokatura idoralariga jami bo'lib 34 dan ortiq davlat organlari va tashkilotlariga internet tarmog'idagi corp.uz elektron pochta orqali yetkazildi.

Termiz shahar adliya bo'limi tomonidan 2022-yilning I choragi davomida jami 361 ta targ'ibot tarbirlari o'tkazilgan. Jumladan:

- ommaviy axborot vositalari orqali – 343 marotaba;
- og'zaki huquqiy targ'ibotlar orqali – 30 marotaba;
- ko'rgazmali huquqiy targ'ibotlar orqali – 121 marotaba.

Aniqlangan qonunbuzilishlar natijasida tegishli idoralarga 71 ta taqdimnoma kiritildi. Taqdimnomalar natijasida 1 743, 3 so'm miqdoridagi to'lovlar to'lab berilishiga erishildi. 7 ta noqonuniy hujjatlar (hokim qarorlari) bekor qilinib, qonunga muvofiq lashtirildi, 1 nafar aybdor shaxs intizomiy javobgarlikka tortilgan.

Shuningdek, qonunchilikni buzish holatlarining oldini olish yuzasidan tegishli shaxslarga 62 ta ogohnoma, ma'muriy javobgarlikka tortish yuzasidan 52 ta takliflar kiritildi. Ushbu davr davomida fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab,

sudlarga 1 539 746, 5 so‘m miqdoridagi pullarni undirish yuzasidan 41 ta da‘vo va arizalari kiritildi. Shundan 1 191 354,4 so‘mlik bajarilgan ishlar qiymatini undirish yuzasidan **iqtisodiy sudga** 5 ta, 348 392,1 so‘m miqdorida yetkazilgan zaralarni undirish hamda yuridik faktlarni belgilash yuzasidan 36 ta da‘vo ariza va arizalar **Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga** kiritildi. Chorak yakuniga qadar ushbu da‘vo ariza va arizalarning 1 061 189,6 ming so‘m miqdoridagi mablag‘larni undirish yuzasidan 18 tasi ko‘rib chiqilib, arizalar qanoatlantirilganligi haqida sudlar tomonidan hal qiluv qarorlari chiqarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5415-son Farmonning 6-bandi hamda shahar adliya bo‘limining 2022-yil I choragi bo‘yicha bergan axborotiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Shahar Adliya bo‘limi boshlig‘i A.Jabbarovning 2022-yil I chorakda shahardagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti holati bo‘yicha axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar adliya bo‘limi (A.Jabbarov)ga:

- shahar hokimligiga hamda shahar darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining tuzilmalariga qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llash masalalari bo‘yicha maslahatlar berish;

- huquqni qo‘llash amaliyotini tizimli tahlil qilish va uning izchilligi va bir xilligini ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralarni ishlab chiqish, huquqiy normalarning o‘zboshimchalik bilan va noto‘g‘ri talqin qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan joylarda davlat organlari va boshqa tashkilotlarga huquqiy maslahatlar berish bo‘yicha samarali ishlarni tashkil etish;

- huquqiy targ‘ibot va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- belgilangan tartibda har oyda xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasiga axborot kiritib borishni ta‘minlasin.

3. Xalq deputatlari shahar Kengashining normativ-huquqiy tustdagi qarorlari loyihalarini shahar adliya bo‘limiga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun yuborilsin.

4. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Elamanov, shahar Adliya bo‘limi bilan birgalikda:

davlat xizmatchilarining huquqiy bilimlari, huquqiy madaniyati va ongining umumiy ahvolini minimal talablar bo‘yicha baholab, natijalarini davlat organlari va hududlar kesimida taqqoslagan holda baho berish va munosib rag‘batlantirish choralari ko‘rsin;

hududlarda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish, aholiga huquqiy axborotlarni, shu jumladan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini manzilli yetkazishga qaratilgan “**Adliya sayillari**” shiori ostida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish choralari ko‘rsin;

joylarda korrupsiya va uning oldini olish bilan bog‘liq huquqiy targ‘ibot sohasida amalga oshirilayotgan tanlovlarni ko‘paytirib, aholining barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini oshirish uchun soha kesimida tadbirlarni tashkil etsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Karimov) zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Termiz shahar hokimi



I.B.Xudayberdiyev